

## BUXORO AMIRLIGIDA IJTIMOY-IQTISODIY HAYOT: TABAQALANISH, XO'JALIK VA SAVDO MUNOSABATLARI

Shukurov R.J

*PhD*

Buxoro amirligi davrida mavjud bo'lgan jamiyat qatlamli, murakkab va an'anaviy feodal tuzilishga ega edi. Ushbu tuzilma jamiyat a'zolarining tug'ilishiga, kasbiga, mulkiy holatiga va diniy mavqeiga qarab qat'iy tabaqalanishini bildirardi. Jamiyat a'zolari o'z ijtimoiy mavqelarini ko'pincha o'z irodalari bilan emas, balki mavjud ijtimoiy-siyosiy tizim va merosiy tartiblar asosida belgilab olgan edilar.

Eng yuqori tabaqa - siyosiy va diniy elita - jamiyat ustidan bevosita nazoratni o'rnatgan edi. Bu tabaqaga, avvalo, amirning o'zi, ya'ni Buxoro hukmdori va uning oilasi kirar, undan so'ng esa beklar, sardorlar, qo'shin boshliqlari kabi harbiy-siyosiy lavozimdagi shaxslar joylashgan edi. Shuningdek, sayyid va shariflar - ya'ni Payg'ambar avlodlari deb e'tirof etilgan, yuqori maqomdagi diniy zotlar ham bu elita tarkibiga kirgan bo'lib, ular nafaqat diniy, balki siyosiy-huquqiy hayotda ham muhim rol o'ynaganlar<sup>12</sup>.

O'rta tabaqa vakillari orasida savdogarlar, hunarmandlar, dehqonlar hamda ilm ahlining nufuzli qatlamlari joylashgan edi. Ayniqsa, katta karvon yo'llari ustida joylashgan shahar va qishloqlarda faoliyat yuritgan yirik savdogarlar o'z mulkiy va iqtisodiy kuchi tufayli jamiyatda sezilarli mavqega ega bo'lgan. Hunarmandlar esa o'z kasb-korlari orqali shaharlar iqtisodiy hayotining asosiy tayanchi sanalgan. Dehqonlar - jamiyatning asosiy ishlab chiqaruvchi kuchi sifatida o'z yerida ishlovchi yoki ijarada yer olib mehnat qiluvchi aholi qatlami hisoblangan. Ular soliq, mahsulot va xizmat ko'rsatish orqali yuqori tabaqalarni ta'minlab turganlar.

Quyida tabaqani esa ko'pincha jamiyatning eng og'ir va himoyasiz qatlamlari tashkil etgan: mardikorlar, chorikorlar, qullar va jinoyatchilik yo'liga kirgan kimsalar, ya'ni qaroqchilar. Mardikorlar - boshqalarning mulkida yollanma ishchi bo'lib ishlagan, asosan og'ir jismoniy mehnat bilan kun kechirganlar. Chorikorlar esa biror yer egalari uchun doimiy xizmat qiluvchi kishilar bo'lib, ular dehqonlik, chorvachilik yoki xizmatkashlik bilan shug'ullanganlar. Qullar esa jamiyatda deyarli hech qanday huquqqa ega bo'lmagan, aksariyati urush asirlari yoki qarzdorlik evaziga sotib yuborilgan shaxslar edi. Ular mulk hisoblangan va faqat egasining irodasiga bo'ysunganlar. Qaroqchilar esa asosan ijtimoiy tengsizlik natijasida jamiyat chekkasiga surilgan va o'z tirikchiligi uchun jinoyat yo'liga o'tgan kishilar bo'lib, ular hokimiyat tomonidan qattiq jazolangan<sup>13</sup>.

<sup>12</sup> Xoliqulov A.B. Buxoro amirligi iqtisodiy hayoti. – Toshkent: Fan, 2015. – B. 70.

<sup>13</sup> Nuritdinov S. O'zbekiston davlatchilik tarixidan lavhalar. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2021. – B. 76.

Bu tabaqalanish ijtimoiy hayotda keskin gorizontalar va vertikal tafovutlarni yuzaga keltirgan. Buxoro jamiyatida ijtimoiy harakatchanlik - ya'ni quyi tabaqadan yuqoriga ko'tarilish imkoniyati deyarli mavjud bo'lmagan. Tug'ilgan oilasi, kasbi yoki merosi bilan belgilangan ijtimoiy maqom odatda umr bo'yi saqlab qolinardi. Faqat kamdan-kam hollarda savdogar yoki ilm ahli bo'lib tanilgan shaxslar yuqoriga ko'tarilishi mumkin bo'lgan.

Buxoro amirligida bu qatlamli jamiyat tuzilmasi siyosiy hokimiyatni mustahkamlash, tartibni saqlash va ijtimoiy barqarorlikni ta'minlash vositasi sifatida xizmat qilgan. Elita qatlamining imtiyozlari, o'rta qatlamning ishlab chiqarishdagi roli va quyi tabaqaning mehnati jamiyatni bir butun mexanizmga aylantirgan bo'lsa-da, bu tuzilmaning asosida chuqur tengsizlik va mustahkamlanib qolgan ijtimoiy chegaralar yotgan edi.

Buxoro amirligi iqtisodiyotining asosiy tayanchi - dehqonchilik bo'lib, mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy hayotida muhim o'rin tutgan. Aholining katta qismi yerdan foydalanish orqali o'z tirikchiligini ta'minlagan, amirlik daromadlarining asosiy qismi ham aynan qishloq xo'jaligi mahsulotlari hisobidan shakllangan. Ayniqsa, sug'oriladigan yerlar samaradorligi yuqori bo'lib, ular orqali bir necha turdagi ekinlar yetishtirish imkoniyati mavjud edi<sup>14</sup>.

Yer egaligi tizimi murakkab va qatlamli tuzilmaga ega bo'lib, yerlar huquqiy maqomiga ko'ra bir necha toifalarga bo'lingan. Birinchi toifa - amir mulklari edi. Bu yerlar bevosita davlat mulki bo'lib, ulardan olinadigan daromadlar amir saroyi va markaziy hokimiyat ehtiyojlari uchun sarflangan. Bunday yerlarda ishlovchi dehqonlar amir nomidan tayinlangan vakillar - lashkarboshi, mirshab, yoki boshqa noiblar orqali nazorat qilinardi, ular yig'ilgan hosilning belgilangan qismini davlat omborlariga topshirardi edilar<sup>15</sup>.

Ikkinchi toifa - vakf yerlari bo'lib, ular diniy va xayriya muassasalari, masjidlar, madrasalar yoki ziyoratgohlar ehtiyoji uchun ajratilgan edi. Ushbu yerlar ustidan nazoratni diniy vakillar - mutavallilar yuritgan. Dehqonlar vakf yerlarida ishlash evaziga hosilning bir qismini shu muassasalar foydasiga topshirganlar. Bu tizim orqali diniy tashkilotlarning moliyaviy mustaqilligi va barqaror faoliyati ta'minlangan.

Uchinchi toifa - xususiy yerlar bo'lib, ular asosan beklar, savdogarlar, boy dehqonlar yoki yuqori martabali amaldorlar mulkida bo'lgan. Bu yerlar dehqonlarga ijaraga berilgan bo'lib, ular ijara to'lovi sifatida hosilning muayyan qismini yer egasiga topshirganlar. Ba'zida esa dehqonlar "yarimchilik" asosida, ya'ni hosilni yer egasi bilan teng taqsimlash sharti bilan ishlaganlar. Bunday munosabatlarda dehqonlar mehnat, urug' va sug'orish xarajatlarini o'z zimmasiga olgan, yer egasi esa asosan yer va boshqa resurslarni ta'minlab turgan.

<sup>14</sup> Aminov B.B. Buxoro amirligi madaniyati va san'ati. - Toshkent: Fan, 2018. - B. 102.

<sup>15</sup> Holboev S. Buxoro amirligi sud sohasiga oid ba'zi mulohazalar. - CyberLeninka, 2020. - B. 33.

Sug'oriladigan dehqonchilik Buxoro amirligida eng taraqqiy etgan sohalardan biri bo'lib, Zarafshon daryosi, Ko'ksuv, Kashkadaryo va boshqa suv manbalaridan foydalanilgan. Qadimiy an'anaga ko'ra suv inshootlari - ariq, jo'yak, hovuz va korizlar mahalliy jamoalar tomonidan birgalikda saqlangan va ta'mirlangan. Ayrim yirik suv inshootlari esa markaziy hokimiyat tomonidan nazorat qilingan. Bu borada qishloqlarda suv bo'yicha mas'ullar - mirablar faoliyat yuritgan bo'lib, ular suvni adolatli taqsimlash, ariqlarni tozalash va zarur hollarda ta'mirlash uchun jamoani safarbar qilish kabi vazifalarni bajargan.

Amirlikda yetishtiriladigan asosiy ekinlar ichida bug'doy, arpa, jo'xori kabi g'alla mahsulotlari asosiy o'rin tutgan bo'lsa, paxta, kanop va zangori bo'yoqlar uchun indigo o'simliklari ham muhim savdo mahsuloti sifatida ahamiyat kasb etgan. Sabzavot va poliz ekinlari, uzum, mevalar ham mahalliy ehtiyojlarni ta'minlash bilan birga bozorlar uchun yetkazib berilgan.

Buxoro dehqonchilik tizimi iqlim va tabiiy resurslarga bog'langan holda shakllangan bo'lib, har bir mintaqada o'ziga xos agrotexnik tajriba, ekinlarni yetishtirish madaniyati mavjud bo'lgan. Biroq, yer egaligi tizimining keskin tabaqalanishi natijasida ko'p hollarda dehqonlar iqtisodiy jihatdan mustaqil bo'lolmagan, ularning mehnatidan asosan yuqori tabaqalar foydalangan. Shu sababli, bu tizim ijtimoiy tengsizlikni yanada kuchaytirgan<sup>16</sup>.

Buxoro amirligi davrida shaharlarda iqtisodiy hayotning eng muhim tayanchi hunarmandchilik sohasi hisoblangan. Ayniqsa Buxoro, Samarqand, Kattaqo'rg'on, Qarshi va Shahrisabz kabi yirik shaharlarda hunarmandchilik keng ko'lamda rivoj topgan bo'lib, bu yerlar nafaqat siyosiy va ma'muriy markaz, balki iqtisodiy faoliyatlarning tugun nuqtasi sifatida ham xizmat qilgan. Shaharlar ichida alohida kasblarga ixtisoslashgan mahallalar mavjud bo'lib, u yerda bir kasbning ko'plab ustalari faoliyat yuritgan.

Hunarmandchilik turlari orasida temirchilik, misgarlik, kulollik, to'qimachilik, charmchilik, zargarlik, yog'och o'ymakorligi, gilamdo'zlik kabi an'anaviy kasblar ustuvor bo'lgan. Temirchilar asbob-uskunalar, haydaladigan yerlar uchun sabanlar, qamchilar, qilich va xanjarlar tayyorlagan bo'lsa, misgarlar choynak, lagan, kumush va misdan ishlangan bezakli buyumlar yaratganlar. Kulollar o'z davrining zarur idish-tovoqlarini yasab, ularni naqshlar bilan bezaganlar. Ayniqsa, to'qimachilik Buxoro va Samarqandda yuqori darajada rivojlangan bo'lib, adras, atlas, beqasam kabi matolar tayyorlangan, bu matolar ichki bozor bilan bir qatorda tashqi bozorga ham chiqarilgan.

Shahar hunarmandlari odatda ustoz-shogird tizimi asosida faoliyat yuritganlar. Har bir kasb egasi avval malakali ustaning qo'lida yillar davomida tahsil olib, tajriba orttirgan. Shogirdlik muddati yakunlangach, u "kalfa" yoki "ustoz" maqomini olgan.

<sup>16</sup> Raximov A. O'rta asr O'zbekiston iqtisodiy tarixi. – Toshkent: Fan, 2019. – B. 64.

Bu tizim orqali kasb sir-asrorlari avloddan-avlodga uzatilgan, sifat nazorati va ustalik an'analari saqlab qolingan.

Ko'plab shaharlarda hunarmandlar esnaf (kasb) uyushmalari yoki "ra'iyati hunarmand" sifatida jamlangan. Bu uyushmalar har bir kasb vakillari uchun axloqiy, iqtisodiy va ma'naviy me'yorlarni belgilagan, mojarolarni hal qilgan, narxlarni muvofiqlashtirgan va ustalar o'rtasidagi tartibni saqlab turgan. Esnaflar jamiyati hunarmandlar orasida birdamlik, o'zaro yordam, ma'naviy qadriyatlar va ustoz-shogird hurmatini kuchaytirgan<sup>17</sup>.

Shaharlardagi iqtisodiy hayotning yuragi - bozorlar edi. Har bir yirik shaharda markaziy bozor mavjud bo'lib, bu joylar nafaqat savdo, balki ijtimoiy va madaniy aloqalarning markaziga aylangan. Bozorlar muayyan tartibda tashkil qilingan: har bir kasb egalari o'zlariga ajratilgan joyda faoliyat yuritgan, masalan, zargarlar ko'chasi, kulollar darvozasi, do'konlar yo'lagi kabi hududlar bo'lgan. Bozorlar nafaqat ichki iste'molchilarga xizmat qilgan, balki xalqaro savdo karvonlari uchun ham muhim almashuv nuqtasi bo'lgan. Xorijdan kelgan savdogarlar Buxoro, Samarqand va boshqa shaharlarda ipak, choy, ziravor, temir buyumlar, oltin-kumush, shisha mahsulotlari bilan savdo qilganlar.

Buxoro amirligi davrida hunarmandchilik nafaqat iqtisodiy hayotning asosi, balki madaniy qadriyatlarning saqlovchisi sifatida ham xizmat qilgan. Kasb bilan shug'ullanish ijtimoiy maqom bilan bog'liq bo'lib, har bir kasb o'zining ichki odob-axloq kodeksiga ega edi. Hunarmandlar orasida shaxsiy mahorat, halollik, va sifatlilik eng yuksak qadriyatlar sifatida e'tirof etilgan.

Buxoro amirligi geografik jihatdan juda qulay va strategik muhim hududda joylashgan bo'lib, u xalqaro savdo yo'llarining chorrahasida joylashgani sababli mintaqaning iqtisodiy hayotida muhim o'rin egallagan. Amirlik hududi qadimdan mashhur bo'lgan Buyuk Ipak yo'lining asosiy tarmoqlari ustida bo'lib, bu yo'llar orqali Sharq va G'arb o'rtasida faol savdo aloqalari yuritilgan. Buxoro shahri va undan o'tuvchi karvon yo'llari Hindiston, Xitoy, Fors (Eron), Rossiya va boshqa davlatlar bilan savdo-sotiqni kuchli ravishda rivojlantirishga xizmat qilgan.

Savdo karvonlari asosan ipak, choy, ziravorlar, qimmatbaho toshlar, metall buyumlar, paxta, charm mahsulotlari, gilamlar va boshqa qimmatli tovarlarni olib o'tgan. Bu mahsulotlar ichki bozorlarda katta talabga ega bo'lish bilan birga, xorijiy bozorlarda ham yuqori baholangan. Xususan, Buxoro ipaklari, atlas va adras matolari, zargarlik buyumlari va hunarmandlar mahsulotlari Sharqiy Osiyo va Yaqin Sharq bozorlarida yuqori nufuzga ega bo'lgan.

Ichki bozorlarda esa, dehqonchilik va hunarmandchilik mahsulotlari asosiy savdo obyektini bo'lgan. Paxta, ipak, don mahsulotlari, ziravorlar, yog', asal, charmdan tayyorlangan poyabzal va buyumlar, hamda oltin-kumushdan yasalgan zargarlik mahsulotlari bozorlarda faol aylanib, xalq ehtiyojini qondirish bilan birga,

<sup>17</sup> Xoliqova R.E. Buxoro amirligi davrida ta'lim tizimi. - Toshkent: Fan, 2016. - B. 121.

davlat g'aznasiga ham muhim daromad keltirgan. Bozorlarda savdo faqat oddiy xalq ishtirokida emas, balki katta miqdordagi kapitalga ega bo'lgan savdogarlar, karvonsaroy egalari va vositachilar tomonidan ham amalga oshirilgan. Bular orasida alohida toifani tashkil etgan savdogarlar - "tujjor" jamiyatda yuqori mavqega ega bo'lib, ko'pincha siyosiy doiralar bilan ham yaqin aloqada bo'lganlar.

Buxorodagi savdo-sotiq faoliyati rivoji uchun karvon yo'llari bo'yida qurilgan karvonsaroilar muhim rol o'ynagan. Ular uzoq masofadan kelgan savdogarlar uchun tunash, tovarlarni saqlash, ot-ulovlarni boqish, bitimlar tuzish va dam olish uchun qulay shart-sharoit yaratgan. Har bir yirik shaharda bir necha karvonsaroy bo'lgan bo'lib, ular davlat yoki xususiy shaxslar tomonidan moliyalashtirilgan. Karvonsaroilar nafaqat savdo-sotiq joyi, balki madaniy va axborot almashinuvi markazlari sifatida ham xizmat qilgan.

Savdo yo'llari xavfsizligi davlat tomonidan nazorat qilingan. Yo'lbo'yidagi qorovulxonalarda qo'riqchilar xizmat qilgan, ular savdogarlar va karvonlarni bosqinchilardan himoya qilgan. Ayrim holatlarda davlat karvonlarga harbiy kuzatuvchilarni ham biriktirib bergan. Buxoro amirligi savdo-sotiqni faollashtirish orqali o'zining iqtisodiy qudratini mustahkamlab borar edi<sup>18</sup>.

Shuni ham ta'kidlash joizki, xalqaro savdoning kuchli rivojlanishi Buxoroning jahon siyosiy-iqtisodiy maydonidagi o'rnini mustahkamlab, uni Markaziy Osiyoning muhim iqtisodiy va madaniy markazlaridan biriga aylantirgan. Savdogarlar jamiyatning ijtimoiy tuzilmasida o'ziga xos tabaqa sifatida ajralib turgan: ular ko'pincha boy va savodli bo'lishgan, madaniyat, ta'lim va jamoat hayotiga homiylik qilganlar. Ularning faoliyati tufayli shaharlarda doimiy iqtisodiy faollik saqlanib turgan va aholi turmush darajasiga ijobiy ta'sir ko'rsatgan.

Buxoro amirligining iqtisodiy tizimi ichida soliqlar alohida o'rin tutgan bo'lib, ular davlatning moliyaviy asosini tashkil etgan. Soliq tizimi ancha murakkab va ko'p bosqichli bo'lib, har xil ijtimoiy guruhlariga turli shakllarda iqtisodiy yuklamalarni yuklagan. Soliqlar asosan musulmon qonunlariga (shariat) va amirlikning ma'muriy siyosatiga asoslangan holda belgilangan<sup>19</sup>.

Eng asosiy soliq turlariga zakat, ushr, xaraj, boj va to'lovlar kirgan. Zakat musulmon dehqonlar va savdogarlar tomonidan boylikdan ajratiladigan diniy soliq bo'lib, odatda kambag'allarga va vakf tashkilotlariga yo'naltirilgan. Ushr esa musulmon dehqonlardan olinadigan hosilning o'ndan bir qismi bo'lib, uni dehqon o'z hosilidan bevosita ajratgan. Xaraj esa g'ayri musulmonlardan yoki davlat yerlarida ishlovchi dehqonlardan olinadigan soliq bo'lib, u hosilning uchdan bir qisminigacha borishi mumkin edi. Ushbu soliq shakllari dehqonchilik bilan shug'ullanuvchi aholining asosiy yuklamasi bo'lgan.

<sup>18</sup> Mavlonov A. Buxoro amirligi tarixi tarixshunosligida Ahmad Donish asarlarining o'rnini. – CyberLeninka, 2019. – B. 24.

<sup>19</sup> Mavlonov A. Buxoro amirligi va Xiva xonligi o'rtasidagi munosabatlar. – Toshkent: Fan, 2017. – B. 90.

Soliq yig'ish jarayoni odatda amlokdorlar - ya'ni davlat tomonidan tayinlangan soliq yig'uvchilar orqali amalga oshirilgan. Ular mahalliy aholining mulk, yer va daromadlarini hisobga olib, aniqlangan miqdorda soliq yig'ib, uni markaziy xazina yoki ayrim hollarda vakf tashkilotlariga topshirgan. Amlokdorlarning faoliyati qat'iy nazorat ostida bo'lgan, biroq ko'p hollarda ularning soliq miqdorini sun'iy oshirishi yoki suiiste'mollikka yo'l qo'yishi xalq orasida noroziliklarga sabab bo'lgan.

Ayrim yillarda yomon hosil, suv tanqisligi yoki siyosiy beqarorlik sababli qishloq aholisining soliq to'lash imkoniyati kamaygan. Bunday hollarda davlat tomonidan soliq miqdorini vaqtincha kamaytirish yoki yengilliklar berish amaliyoti kamdan-kam kuzatilgan. Aksariyat hollarda soliq yukining og'irligi aholi noroziligini kuchaytirgan, ayrim hollarda esa bu noroziliklar ommaviy qo'zg'olonlargacha yetib borgan. Bu esa soliq siyosatining ijtimoiy barqarorlikka ta'siri qanchalik muhim bo'lganini ko'rsatadi.

Buxoro amirligi davrida ijtimoiy-iqtisodiy tuzilmaning qat'iy tabaqalanishi va resurslarning notekis taqsimlanishi jamiyatda adolatsizlik hissining kuchayishiga olib kelgan. Amirlikda eng yuqori tabaqani tashkil qiluvchi amirzodalar, beklar, sayyidlar, ruhoniylar va katta yer egalari keng iqtisodiy imkoniyatlarga ega bo'lib, ularning hayot tarzi hashamatli va izzat-hurmatli edi. Aksincha, jamiyatning asosiy qismini tashkil etgan oddiy dehqonlar, mardikorlar, chorikorlar, qullar va boshqa past tabaqalar og'ir mehnat va soliq yuklari ostida yashagan. Bu tabaqalar hayoti ko'pincha yashash minimumiga zo'rg'a yetarli bo'lgan darajada kechgan.

Ijtimoiy adolatsizlik ko'proq yerga egalik va undan foydalanish tizimida yaqqol ko'zga tashlangan. Amalga oshirilayotgan agrar siyosat amir mulklari, vakf yerlari va xususiy yer egalari foydasini ko'zlagan. Oddiy dehqonlar ko'p hollarda yersiz bo'lib, yollanma mehnat evaziga kun kechirgan yoki yer egalari hosilning katta qismini topshirishga majbur bo'lgan. Sug'oriladigan yerlarda ishlash imkoniyati juda cheklangan bo'lib, bu holat ularning iqtisodiy mustaqilligini to'la ta'minlamas edi. Qishloqlarda esa chorikorlik, ya'ni boshqa birovga ishlash evaziga yashash holatlari keng tarqalgan bo'lib, bunday shaxslarning mehnati deyarli hech qanday huquqiy kafolat bilan himoyalangan.

Jamiyatdagi ijtimoiy tengsizlik faqat iqtisodiy emas, balki huquqiy jihatdan ham mustahkamlangan edi. Masalan, yuqori tabaqa vakillari jinoyat yoki qonunbuzarlik sodir etsa, ular ko'pincha jazodan qutulib ketar, past tabaqadagilarga esa og'ir jazolar qo'llanilar edi. Ayniqsa, qullarning huquqsizligi, ularning mol sifatida ko'rilishi va istalgan vaqtda sotilishi yoki jazolanishi bu qatlam vakillarining insoniy erkinliklardan mutlaqo mahrum ekanini ko'rsatadi.

Bu kabi tizimiy adolatsizliklar jamiyatda norozilik kayfiyatini keltirib chiqargan. Tarixiy manbalarda ayrim viloyatlarda - xususan, Zarafshon vodiysi, Kattaqo'rg'on, va G'ijduvon atroflarida - dehqonlarning norozilik chiqishlari, soliqlarning og'irligiga qarshi norasmiy qarshiliklar, ayrim hollarda esa to'qnashuvlar

kuzatilgan. Ba'zan bu noroziliklar ijtimoiy harakatlar yoki dinga asoslangan islohotchi oqimlarning shakllanishiga ham sabab bo'lgan.

Bunday noroziliklarning ildizi faqat iqtisodiy adolatsizlikda emas, balki siyosiy-huquqiy imkoniyatlarning yo'qligida ham edi. Oddiy aholi hokimiyat tuzilmalarida ishtirok eta olmas, mahalliy amaldorlar esa ko'pincha ularga quloq solmasdi. Bu esa ijtimoiy muvozanatni ta'minlashda asosiy to'siqlardan biri bo'lib, davlatning uzoq muddatli barqarorligiga putur yetkazgan omil sifatida qaraladi.